


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 056,1 mld. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,8 % ga yetdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



**2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**


	<i>Mlrd. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	
I. YAHM, jami	27 529,3	33 056,1	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	26 894,1	32 041,7	107,3
mahsulotlarga sof soliqlar	635,2	1 014,4	103,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	26 894,1	32 041,7	107,3
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	9 171,1	10 120,7	102,9
sanoat (qurilishni qo‘sghan holda)	8 652,0	10 914,2	112,1
sanoat	7 218,2	9 326,6	113,7
qurilish	1 433,8	1 587,6	104,1
xizmatlar	9 071,0	11 006,8	107,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 841,7	2 182,9	110,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 380,7	1 705,0	113,2
boshqa xizmat tarmoqlari	5 848,6	7 118,9	104,9

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 695,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,0 % ga yuqoridir.

**2024-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi (ming so‘mda)**



**2024-yilning yanvar-iyun oylarida Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	97,7	96,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	3,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	34,1	31,6
sanoat (qurilishni qo‘sghan holda)	32,1	34,1
sanoat	26,8	29,1
qurilish	5,3	5,0
xizmatlar	33,8	34,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6,8	6,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	21,9	22,2

2024-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 %ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 31,6 %ni, sanoat tarmog'i 29,1 %ni, qurilish 5,0 %ni va xizmatlar sohasi 34,3 %ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,01 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,6 %), sanoatda – 113,7 % (29,1 %), qurilishda – 104,1 % (5,0 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (34,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (6,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,2 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 % dan (22,2 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 113,7 % va xizmatlarda – 113,1 % qayd etildi.

Yanvar-Iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi (o ‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 20 496,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 17 474,7 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 64,0 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 65,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

Yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

Aholi jon boshiga YAHM – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘silgan qiymat (YaQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘silgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.